

RAQAMLI ASRDA INSON VA JAMIYAT O'RTASIDAGI MUNOSABAT

Abdurahmonova Muslima Toxirjon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi

E-mail: muslimam1609@icloud.com

Ilmiy rahbar: Kamolova Kimyoxon G'ulomjonovna

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20562851>

Annotatsiya: Ushbu maqolada falsafaning fundamental masalalaridan biri bo'lgan inson va jamiyat o'rtasidagi dialektik aloqadorlik, insonning ijtimoiy mohiyati faylasuf mutafakkirlar hamda olimlarning qarashlari orqali yoritilgan. Bundan tashqari globallashtirish va raqamli transformatsiya sharoitida yuzaga kelayotgan ijtimoiy yakkalanish, ommaviy madaniyat ta'siri, virtual muloqotning inson ongi va ma'naviyatiga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Inson, jamiyat, dialektika, shaxs, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy ong, komil inson, antropogenez, ijtimoiy muhit.

Аннотация: В данной статье рассматривается один из фундаментальных вопросов философии – диалектическая взаимосвязь человека и общества, а также социальная сущность человека – с точки зрения философов и ученых. Кроме того, анализируются социальная изоляция, возникающая в контексте глобализации и цифровой трансформации, влияние массовой культуры и воздействие виртуальной коммуникации на человеческое сознание и духовность.

Ключевые слова: Человек, общество, диалектика, личность, социальное развитие, социальное сознание, совершенный человек, антропогенез, социальная среда.

Abstract: This article examines one of the fundamental issues of philosophy, the dialectical relationship between man and society, and the social essence of man

through the views of philosophers and scientists. In addition, the social isolation that occurs in the context of globalization and digital transformation, the influence of mass culture, and the impact of virtual communication on human consciousness and spirituality are analyzed.

Keywords: *Man, society, dialectics, personality, social development, social consciousness, perfect man, anthropogenesis, social environment.*

Falsafada borliq, materiya, tabiat, olam kabi kategoriyalar qatorida inson va jamiyat, ular o'rtasidagi munosabatlar, taraqqiyoti masalalari falsafiy tafakkurning o'zagi bo'lib, qadimdan faylasuf va olimlarni qiziqtirib kelmoqda.

Ma'lumki, har qanday shaxs o'zligini anglash jarayonida ijtimoiy muhitga ehtiyoj sezadi, chunki **“Inson borlig‘ining ijtimoiy mohiyati uning faoliyatida, muloqotida va ijtimoiy munosabatlar tizimida namoyon bo‘ladi”**[1]. Bu nazariyada faylasuf Qiyomiddin Nazarov, insonning ichki dunyosi, tili, muloqaot darajasi va hatto tuyg‘ulari ham jamiyatda yarailgan poydevor ustiga qurilishini nazarda tutadi. Inson tug‘ilishidan boshlab ijtimoiy munosabatlar ichiga kiradi va hayoti davomida ushbu normalarni o‘zgartirishga yoki boyitishga intiladi. Jamiyat inson uchun nafaqat yashash joyi, balki uning insoniylik darajasini belgilaydigan eng oliy o‘lchovdir. Biz boshqa insonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilganimizdagina asosan yaxshi fazilatlarni – mehribonlik, adolat va fidoyilikni kashf etishga intilamiz. Insonning individual ongi va jamiyatning jamoaviy ongi o‘rtasida doimiy muloqot madaniyati yuzaga keladi. Shaxs jamiyatdan o‘zlashtirgan bilimlari asosida yangi g‘oyalar yaratadi, bu g‘oyalar esa vaqt o‘tishi bilan ijtimoiy qadriyatga aylanadi. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlar insonning biologik tabiatini ijtimoiy-ma'naviy mohiyatga aylantiradi. Insonning shaxs sifatida kamol topishi u a'zo bo'lgan guruhlar, jamoalar va butun bir xalqning ma'naviy dunyosi bilan chambarchas bog'liqdir.

Insonning jamoaviy hayotga bo'lgan moyilligi uning tabiatidagi eng asosiy xususiyatdir. Buni buyuk faylasuf Arastu **“Inson o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy-siyosiy mavjudotdir, jamiyatdan tashqarida yashaydigan mavjudot yo hayvon**

yoki xudodir”[2], – deya ta’riflagan edi. Darhaqiqat, bizning barcha yutuqlarimiz – fan, san’at, texnologiya – hammasi boshqa insonlar bilan o‘zaro hamkorlik va muloqot mahsulidir. Yolg‘iz inson buyuk ishlar qilishi mumkin, lekin uning ma’nosi va natijasi faqat jamiyat ichida qadr topadi. Insonning nutqi ham, tafakkuri ham faqat boshqalar bilan muloqot qilish ehtiyojidan kelib chiqqan. Shuning uchun ham insonning kamoloti faqatgina shaxsiy boylik yoki bilim bilan emas, balki uning o‘zi yashayotgan jamoa uchun qanchalik foydali ekanligi bilan o‘lchanadi.

Inson va jamiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikka erishish uchun birinchi navbatda ta’lim va tarbiya jarayoniga alohida e’tibor berish lozim. Jamiyat shunday muhit yaratishi kerakki, unda har bir shaxs o‘zining yashirin iste’dodlarini namoyon qila olsin. Insonning jamiyatdan uzilib qolishi uning ma’naviy tanazzuliga, nutq va tafakkurining zaiflashishiga olib keladi. Ijtimoiy borliq insonni o‘rab turgan passiv muhit emas, balki uning rivojlanishini ta’minlovchi faol maydon sifatida ko‘rinishi lozim. Har bir davrning o‘z ijtimoiy talablari bo‘lib, inson ushbu talablarga javob berish orqali o‘zligini namoyon etadi. Insonning jamiyat bilan bog‘liqligi uning erkinligini cheklamaydi, aksincha, haqiqiy erkinlikka erishish uchun imkoniyat yaratadi.

Tarix sahnasida guvoh bo‘lamizki, insoniyatning har bir bosqichida jamiyat shaxsga nisbatan ma’lum bir talablar qo‘yadi va uni amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Inson baxtga va kamolotga erishishi uchun ma’lum bir muhitga muhtoj ekanligini birinchi renessans namoyondalaridan bo‘lgan Farobiy shunday izohlaydi: **“Har bir inson o‘z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashashi va oliy darajadagi yetuklikka erishishi uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bunday narsalarni bir o‘zi qo‘lga kirita olmaydi va ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj sezadi”**[3].

Hozirgi davrda bu bog‘liqlik yanada yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Jamiyatni bir butun organizm deb tasavvur qilinsa, undagi har bir shaxs o‘z sohasidan kelib chiqib, mas’uliyatini his qilishi, vatani uchun daxldorlik hissini tuyushi jamiyatning barqarorligini ta’minlaydi.

Jamiyatdagi ijtimoiy adolat, hamkorlik va o'zaro yordam tamoyillari insonning ruhiy xotirjamligini ta'minlaydi. Inson o'z iste'dod va qobiliyatlarini faqat boshqalar bilan raqobatda yoki hamkorlikda namoyon qila olishi mumkin. Jamoaviy mehnat va ijod natijasida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar insonning yashash sifatini yaxshilaydi va unga kelajakka ishonch beradi. Insonning yuksak maqsadlari doimo ijtimoiy yo'nalishga ega bo'ladi, ya'ni u o'zidan keyin jamiyatga naf keltiradigan meros qoldirishni istaydi.

Zamonaviy jamiyatda insonning individualligi va ijtimoiy bosim o'rtasida jiddiy ziddiyatlar ham yuzaga kelmoqda. Texnologik taraqqiyot insonni tashqi tomondan erkinlashtirgandek ko'rinsa-da, ichki dunyosida yangi zanjirlarni paydo qilmoqda. Masalan, **“Zamonaviy inson tashqi erkinlikka erishgan bo'lsa-da, u o'zini jamiyatda yolg'iz va ojiz his qilmoqda, bu esa uni ozodlikdan qochishga majbur qilmoqda”**. Raqamli olam odamlarni butun dunyo bilan bog'ladi, fan va texnologiyaning rivojlanishiga sabab bo'ldi, lekin tan olish kerakki, yon-atrofdagi eng yaqin insonlardan uzoqlashtirdi. Virtual muloqot avj oldi, ammo u, real hayotdagi samimiyatning o'rnini bosa olmaydi. Insonning jamiyat ichidagi yolg'izlanishi ma'naviy inqirozlarni keltirib chiqarmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makon insonning o'zligi haqidagi tasavvurlarini sun'iy lashtirib yubormoqda. Ommaviy madaniyatning ta'siri ostida shaxs o'zining mustaqil fikrini yo'qotib, ko'pchilikning oqimi bilan yurishga odatlanib qolmoqda. Bu esa insonning ijodiy tabiatini bo'g'ib, uni ijtimoiy tizimning oddiy bir detaliga aylantirib qo'yishi mumkin. Bunday sharoitda insonning o'zligini saqlab qolishi va haqiqiy ijtimoiy aloqalarni qadrlashi har qachongidan ham muhimroqdir.

Hozirgi Yangi O'zbekiston sharoitida inson omiliga bo'lgan e'tibor tubdan o'zgardi. Jamiyat va davlat endi inson uchun xizmat qilishi kerakligi asosiy qoida sifatida belgilandi. Bu strategiya shuni anglatadiki, **“Inson qadri biz uchun har qanday narsadan ustundir, jamiyatning rivoji har bir fuqaroning erkin va farovon yashashi bilan o'lchanadi”** [6]. Inson qadri – bu faqat moddiy boylik

emas, balki uning ilm olishi, erkin fikrlashi va jamiyat hayotida daxldorlik hissi bilan yashashidir.

Biz qachonki jamiyat muammolarini o'z muammomiz deb qabul qilsak va bu muammalarning yechimini topishga harakat qilsak, har bir islohotda o'z hissamizni qo'shsak, o'shandagina chinakam taraqqiyotga erishamiz, yangi renessansga asos sola olamiz. Insonning huquq va erkinliklari jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Shaxsning ma'naviy yuksalishi jamiyatning umumiy madaniy darajasini ko'taradi va davlatning xalqaro maydondagi nufuzini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabat falsafaning eng muhim va doimiy dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Inson biologik mavjudot sifatida tug'ilsa-da, uning shaxs sifatida shakllanishi, ma'naviy kamoloti, dunyoqarashi va qadriyatlari ijtimoiy muhit ta'sirida vujudga keladi. Jamiyat inson uchun nafaqat yashash makoni, balki uning intellektual, axloqiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydigan muhim ijtimoiy institutdir. Shu bilan birga, jamiyat taraqqiyoti ham faol, tashabbuskor va mas'uliyatli insonlar faoliyati bilan belgilanadi. Demak, inson va jamiyat o'rtasidagi munosabat ikki tomonlama, uzviy hamda dialektik xarakterga ega.

Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida inson va jamiyat munosabatlarining yangi mazmun kasb etishi, bir tomondan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari inson imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, ijtimoiy yakkalanish, ommaviy madaniyat ta'siri va ma'naviy begonalashuv kabi muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda insonning mustaqil fikrlashi, ma'naviy immuniteti va milliy qadriyatlarga sodiqligini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida inson qadri va inson manfaatlarini ta'minlash ustuvor yo'nalish sifatida belgilanganligi inson va jamiyat munosabatlarining yangi bosqichga ko'tarilganidan dalolat beradi. Insonning erkin fikrlashi, bilim olishi, o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun yaratilayotgan imkoniyatlar nafaqat shaxs kamolotiga, balki

jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shunday ekan, inson va jamiyat uyg'unligini ta'minlash, ma'naviy yetuk, ijtimoiy mas'uliyatli hamda vatanparvar shaxslarni tarbiyalash Yangi O'zbekiston taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qahhor Nazarov tahriri ostida. Falsafa: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2010.
2. Arastu. Siyosat (Politics). – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.
4. Immanuel Kant. Amaliy aql tanqidi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
5. Erix Fromm. Ozodlikdan qochish. – Toshkent: Akademnashr, 2022.
6. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.